



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 158 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari.....	110
<i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	113
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
<i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi</i>	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
<i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	126
<i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	139
<i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>	
Improving High Jump Techniques	143
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari.....	146
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников.....	149
<i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон қизи</i>	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
<i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла қизи</i>	



OLIY TA'LIMDA TARBIYAVIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION MODELLARI

Sanayeva Surayyo Bobonazarovna
Navoiy davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda innovatsion modellar mohiyati, asosiy yo'nalishlari, afzalliklari hamda O'zbekiston tajribasi tahlil qilingan. Talabalarda umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ularni ma'naviy, madaniy va ijtimoiy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda modulli, loyihaviy, raqamli, refleksiv va integrativ modellar samaradorligi ilmiy asoslangan. Innovatsion yondashuvlar ta'lim va tarbiya jarayonini uyg'unlashtirish, shaxsga yo'naltirilganlik va kompetensiyaviy rivojlanishni ta'minlovchi muhim omil sifatida yoritilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyaviy faoliyat, innovatsion model, oliy ta'lim, umumkasbiy kompetensiyalar, integrativ yondashuv, raqamli texnologiyalar, refleksiya.

Abstract: The article analyzes the essence, main directions, and advantages of innovative models in organizing educational activities within the higher education system. The effectiveness of modular, project-based, digital, reflective, and integrative models in shaping students' general professional competencies and fostering their spiritual, cultural, and social development is substantiated. Innovative approaches are highlighted as a key factor for integrating educational and upbringing processes, ensuring student-centered and competence-based development.

Key words: educational activity, innovative model, higher education, general professional competencies, integrative approach, digital technologies, reflection.

Аннотация: В статье исследуются сущность, основные направления и преимущества инновационных моделей в организации воспитательной деятельности в системе высшего образования. Обоснована эффективность модульных, проектных, цифровых, рефлексивных и интегративных моделей в формировании общепрофессиональных компетенций студентов, а также в их духовном, культурном и социальном развитии. Инновационные подходы рассматриваются как фактор интеграции учебного и воспитательного процессов, обеспечения личностно-ориентированного и компетентностного развития.

Ключевые слова: воспитательная деятельность, инновационная модель, высшее образование, общепрофессиональные компетенции, интегративный подход, цифровые технологии, рефлексия.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida oliy ta'lim tizimining vazifalari keskin o'zgarib, yangilanib bormoqda. Endilikda ta'lim jarayonining asosiy maqsadi faqat bilim, ko'nikma va malaka berish bilangina cheklanib qolmasdan, balki talabalarni jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, axloqiy qadriyatlarga sodiq, madaniy jihatdan yuksak, ijtimoiy munosabatlarda mas'uliyatli va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishni ham o'z ichiga olmoqda. Shu sababli tarbiyaviy faoliyat oliy ta'lim muassasalarining ajralmas qismi sifatida qaralishi zarur bo'lib, u ta'limning mazmuni, shakli va metodlari bilan integratsiyada olib borilishi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil qilinishi talab etiladi. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish esa jarayonning samaradorligini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Oliy ta'lim tizimi doirasida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning dolzarbligi shundan iboratki, yoshlar nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha yetarli nazariy bilimlarga ega bo'lishlari, balki kelajakda kasbiy faoliyat jarayonida to'laqonli pedagogik, axloqiy, madaniy va ijtimoiy fazilatlarini namoyon qila olishlari kerak. Talabani shaxsiy rivojlanishi faqat auditoriyadagi bilim olish jarayoni bilan cheklanib qolmaydi, balki uning axloqiy qarashlari, madaniy saviyasi, ijtimoiy faoliyati va muloqot madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Shu boisdan oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyatni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish nafaqat ta'lim sifati, balki shaxs kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va milliy manfaatlar nuqtai nazaridan ham ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

XXI asrda ilm-fan, texnologiya va axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Endilikda pedagogik jarayonni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, masofaviy ta'lim tizimlari, virtual va aralash o'qitish metodlari, elektron resurslar, interaktiv platformalar, mobil ilovalar keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, tarbiyaviy faoliyatni ham zamonaviy innovatsion vositalar asosida yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar va intilishlari ko'p jihatdan axborot muhitidagi ta'sirlarga bog'liq. Agar oliy ta'lim muassasalari tarbiyaviy faoliyatni faqat an'anaviy metodlar bilan cheklab qo'ysa, talabalar tashqi axborot oqimlarining salbiy ta'siriga moyil bo'lib qolishlari mumkin. Shu bois tarbiyaviy faoliyatni zamon talablariga mos tarzda innovatsion modellar asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida ko'rilmoqda [3].

Oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etish bir qator metodologik tamoyillarga asoslanadi:

- Avvalo, bu jarayon shaxsga yo'naltirilganlik tamoyiliga tayanadi. Talaba shaxsining ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlar va imkoniyatlari inobatga olinmagan holda tarbiyaviy faoliyat natija bermaydi. Shu bois tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda individuallashtirish va differensial yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.
- Ikkinchi tamoyil – integrativlik. Tarbiyaviy faoliyat ta'lim jarayonidan ajralgan holda emas, balki uning uzviy qismi sifatida tashkil etilishi zarur. Har bir fan, har bir mashg'ulot, har bir loyiha va tadbir tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi kerak.
- Uchinchi tamoyil – faoliyatga asoslanganlik. Talabalar faqat nazariy bilim eshitibgina qolmasdan, balki bevosita amaliy faoliyatda, jamoaviy ishda, ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etishlari lozim.
- To'rtinchi tamoyil – zamonaviy texnologiyalarga asoslanish bo'lib, bunda pedagogik jarayonni innovatsion metodlar va vositalar bilan boyitish ko'zda tutiladi [13].

Innovatsion modellarning joriy etilishi tarbiyaviy faoliyatni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Masalan, loyihaviy faoliyat modeli orqali talabalar turli ijtimoiy va madaniy loyihalarda ishtirok etib, o'zlarida jamoada ishlash, tashabbus ko'rsatish, mas'uliyatni bo'lishish, muammolarni hal etish kabi ko'nikmalarni shakllantiradilar. Raqamli-interaktiv model esa talabalar uchun virtual muhitda axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni o'rganish, elektron treninglarda ishtirok etish, onlayn bahs-munozaralarda qatnashish imkoniyatini yaratadi. Refleksiv-monitoring modeli esa talabalarni o'z faoliyatini baholash, o'z ustida ishlash, o'zini rivojlantirish va o'z xatolaridan to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Shuningdek, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Talabalar milliy an'ana va urf-odatlarini chuqur anglab, o'z madaniy merosiga hurmat bilan qarashlari zarur. Shu bilan birga, ular umuminsoniy qadriyatlarni ham qabul qilib, turli madaniyat egalari bilan muloqotda bag'rikenglik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Innovatsion modellar aynan mana shu integrativ yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar – UNESCO, OECD, UNICEF tomonidan ishlab chiqilayotgan ta'lim strategiyalarida ham tarbiyaviy faoliyatga katta ahamiyat berilmoqda. Bu tashkilotlarning ta'kidlashicha, kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yurituvchi shaxs faqat bilimli emas, balki kuchli ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarga ega bo'lishi, hamkorlikda ishlay olishi, axloqiy jihatdan barqaror va madaniy jihatdan yetuk bo'lishi lozim. Shu bois oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy faoliyatni innovatsion modellar asosida tashkil etish global tendensiyalar bilan uyg'unlashib, mamlakatimiz ta'lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish imkoniyatini beradi [9].

Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda innovatsion modellarning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchilarning kasbiy mahoratiga, pedagogik madaniyatiga va shaxsiy namunalari bog'liq. Chunki eng ilg'or texnologiyalar ham, eng mukammal metodlar ham pedagog shaxsining ichki madaniyati va axloqiy pozitsiyasiz samarali natija bera olmaydi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning tarbiyaviy kompetensiyalarini rivojlantirish ham innovatsion modelning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim [25].

Shu o'rinda aytish mumkinki, oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari talabalarda umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, shuningdek, jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan avlodni yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur masala nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham dolzarb bo'lib, kelajakdagi tadqiqot va amaliy izlanishlarda yanada chuqurroq o'rganilishi zarur.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim tizimida innovatsion model tushunchasi so'nggi yillarda ko'plab ilmiy izlanishlar va pedagogik tadqiqotlarning markazida turibdi. Chunki globallashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida an'anaviy ta'lim va tarbiya jarayonlari ko'plab jihatlari bilan zamon talablari darajasida natija bera olmay qolmoqda. Shu sababli ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, yangi shakl, metod va vositalardan foydalanish nafaqat zamonaviy ta'limning, balki tarbiyaviy faoliyatning ham strategik ehtiyoji sifatida qaralmoqda. Innovatsion model deganda, mavjud tizimni tubdan isloh qilish emas, balki uni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadigan, ichki mazmun va tashqi shakl jihatidan samaradorlikni oshiradigan pedagogik yechimlar majmuasi tushuniladi. Bu yechimlar ko'proq integratsiya, kreativlik, shaxsga yo'naltirilganlik va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga asoslanadi [27].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik kontekstda innovatsion model tushunchasini anglash uchun, avvalo, modelning o'ziga xos ilmiy mohiyatini tahlil qilish zarur. Model – murakkab hodisa yoki jarayonning soddalashtirilgan ifodasi bo'lib, u tadqiqotchiga mazkur hodisani tushunish, o'rganish va qayta tashkil etish imkonini beradi. Pedagogik model esa ta'lim-tarbiya jarayonini nazariy asoslangan va amaliy jihatdan tatbiq etiladigan loyihaviy ko'rinishidir. Innovatsion model esa, o'z navbatida, pedagogik modelning yangi g'oya va texnologiyalar asosida yangilangan shakli bo'lib, uning maqsadi an'anaviy jarayonlarni transformatsiya qilish, ularga yangi mazmun berish va talabalarining shaxsiy rivojlanishini samaraliroq ta'minlashdan iboratdir [2].

Innovatsion modelning pedagogik mohiyatini ochishda uchta asosiy qatlamni ko'rsatish mumkin: birinchisi, mazmuniy qatlam bo'lib, u ta'lim va tarbiya jarayoniga kiritiladigan yangi g'oya, konsepsiya va qadriyatlarni anglatadi; ikkinchisi, texnologik qatlam bo'lib, u ta'lim jarayonida qo'llaniladigan yangi metod, shakl va vositalar majmuini ifodalaydi; uchinchisi, natijaviy qatlam bo'lib, u talabalar shaxsida shakllanadigan umumiy va kasbiy kompetensiyalar bilan bog'liqdir. Shu sababli innovatsion model pedagogik jarayonda nafaqat tashqi shaklni, balki ichki mohiyatni ham o'zgartiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda innovatsion modellarning asosiy pedagogik mohiyatini quyidagi yo'nalishlar orqali izohlash mumkin:

Birinchidan, innovatsion model shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslanadi. Bu shuni anglatadiki, har bir talabaning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati va shaxsiy rivojlanish trayektoriyasi hisobga olinadi. An'anaviy tizimda ko'pincha talabalar bir xil shakl va metodlar asosida bilim oladilar, bunda individuallik e'tibordan chetda qoladi. Innovatsion model esa, aksincha, har bir shaxsning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, innovatsion model kompetensiyaviy yondashuvni ustuvor qiladi. Ya'ni bilimlar o'z-o'zidan maqsad emas, balki ular orqali talabada umumkasbiy, ijtimoiy, axloqiy, madaniy va ijodiy kompetensiyalar shakllanishi ko'zda tutiladi. Bu jarayon talabani kelajakda nafaqat kasbiy faoliyatga, balki ijtimoiy hayotga ham tayyorlaydi. Masalan, bir fan doirasida talaba nafaqat nazariy tushunchani o'rganadi, balki uni amaliyotda qo'llash, jamoada ishlash, muammoli vaziyatni hal etish, axloqiy qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni ham egallaydi.

Uchinchidan, innovatsion model integrativ yondashuvni o'zida mujassam etadi. Bu esa ta'lim va tarbiya jarayonini bir butun sifatida ko'rib, fanlararo aloqalarni mustahkamlashni anglatadi. An'anaviy tizimda fanlar ko'pincha bir-biridan ajralgan holda o'qitiladi, tarbiyaviy faoliyat esa alohida tadbirlar shaklida tashkil qilinadi. Innovatsion modelda esa, har bir fan, har bir mashg'ulot tarbiyaviy komponentni ham o'z ichiga oladi, turli fanlar o'zaro bog'liq holda o'qitiladi, natijada talaba bilimni yaxlit tizim sifatida qabul qiladi.

To'rtinchidan, innovatsion model kreativlik va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratiladi. Talabalar faqat tayyor bilimlarni egallabgina qolmay, balki yangi g'oyalar yaratishga, mustaqil fikr yuritishga, yangicha yondashuvlarni taklif etishga o'rgatiladi. Shu bois innovatsion modelda faol o'qitish metodlari – loyiha ishlari, tadqiqot topshiriqlari, keys-stadi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, rolli o'yinlar, debatlar keng qo'llaniladi.

Beshinchidan, innovatsion modelda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar, onlayn kurslar, multimedia resurslari, mobil ilovalar orqali ta'lim jarayoni yanada qiziqarli, samarali va interaktiv bo'ladi. Bu nafaqat talabalar bilimni mustahkamlaydi, balki ularning axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, onlayn hamkorlik loyihalari orqali talabalar turli hududdagi tengdoshlari bilan ishlashni o'rganadilar, bu esa ularning muloqot va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Innovatsion modelning pedagogik mohiyatida yana bir muhim jihat – bu refleksiya va monitoring tizimining mavjudligidir. Talabalar o'z faoliyatini tahlil qilish, o'zini baholash va o'z ustida ishlashga o'rgatiladi. O'qituvchi esa faqat nazorat qiluvchi emas, balki talabani rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi maslahatchi rolini bajaradi. Bu jarayon natijasida talabada o'zini boshqarish, mas'uliyat, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlanadi ^[15].

Innovatsion modelning pedagogik mohiyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish ham dolzarb masala hisoblanadi. Har qanday innovatsiya milliy madaniyatdan, tarixiy an'analardan uzilgan bo'lsa, u barqaror natija bermaydi. Shu bois oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda innovatsion modellarga milliy qadriyatlar, ma'naviy meros va madaniy an'analarni singdirish zarur. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar – inson huquqlari, erkinlik, adolat, bag'rikenglik, insonparvarlik tamoyillari ham talabalarning axloqiy-ijtimoiy qarashlarida mustahkam o'rin egallashi lozim.

Pedagogik nuqtayi nazardan innovatsion model shunchaki yangi texnologiya yoki vositalar majmui emas. U – ta'lim va tarbiya jarayonini tubdan yangilashga xizmat qiladigan, shaxs rivojlanishini markazga qo'yadigan, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni uyg'unlashtiradigan tizimdir. Uning mohiyati shundaki, u talabani nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki qadriyatlarini, shaxsiy sifatlarini, ijtimoiy munosabatlarini ham shakllantirishga qaratilgan. Innovatsion modelning samaradorligi shundaki, u ta'lim va tarbiya birligini ta'minlaydi, nazariya va amaliyotni integratsiyalaydi, talabalarda umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda kuchli mexanizm vazifasini bajaradi ^[17].

Shu tariqa, innovatsion model tushunchasi va uning pedagogik mohiyati shaxsga yo'naltirilganlik, kompetensiyaviy yondashuv, integrativlik, kreativlik va zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga qaratilgan bo'lib, u o'z mohiyatida nafaqat o'qitish samaradorligini oshirish, balki tarbiyaviy faoliyatning ham yangi sifat darajasiga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Innovatsion model orqali talabalar bilimdon, mas'uliyatli, madaniyatli, axloqiy barkamol va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanadilar. Bu esa ta'lim tizimining asosiy maqsadiga – barkamol avlodni tarbiyalashga erishishning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etishda innovatsion modellarning asosiy yo'nalishlarini aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish jarayonning sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Chunki har qanday model faqat nazariy qarashlar doirasida qolib ketsa, u o'z vazifasini bajara olmaydi, natijada tarbiyaviy faoliyat faqat rasmiy shaklga aylanib qoladi.

Innovatsion modelning yo'nalishlari esa ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunan va shaklan boyitib, talabalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularda umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ijtimoiy faoliyat va fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirish, axloqiy qarashlarni mustahkamlash hamda madaniy saviyani yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuning uchun bu yo'nalishlarni chuqur tahlil qilish pedagogik nuqtayi nazardan dolzarb masaladir ^[22].

Innovatsion modellarning asosiy yo'nalishlari deganda, ularning pedagogik mazmunini ochib beruvchi, amaliy mexanizmlarini belgilovchi va samaradorlikka olib keluvchi turli shakl va metodlar majmui tushuniladi. Bunday yo'nalishlarni ko'rib chiqishda ularning nazariy asoslari, amaliy tatbiqi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligi, shuningdek, shaxsiy rivojlanish, ijodiy yondashuv va zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liqligi muhim ahamiyatga ega.

Avvalo, innovatsion yo'nalishlarning pedagogik mohiyatini aniqlash kerak.

Birinchi navbatda, bu yo'nalishlar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiyaning ustuvorligini ifodalaydi. Talabani ehtiyoji, qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olmagan har qanday yondashuv samara bermaydi. Shu bois innovatsion yo'nalishlar har bir shaxsning rivojlanish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Ikkinchidan, bu yo'nalishlar kompetensiyaviy yondashuv tamoyillarini asos qilib oladi, ya'ni bilimlar emas, balki ular asosida shakllanadigan umumkasbiy va shaxsiy kompetensiyalar natija sifatida baholanadi.

Uchinchidan, innovatsion yo'nalishlar integrativlikni ta'minlashi kerak, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayoni, fan va amaliyot, nazariya va amaliy faoliyat bir-biridan ajralmas holda olib borilishi lozim.

To'rtinchidan, bu yo'nalishlarda ijodkorlik va kreativlik ustuvor o'rin tutadi, chunki innovatsiya yangicha fikrlash va noan'anaviy yechim topishga asoslanadi.

Beshinchidan, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bu yo'nalishlarning asosiy komponenti sifatida qaraladi, chunki raqamli vositalarsiz bugungi ta'lim samarador bo'la olmaydi.

Innovatsion modellarning asosiy yo'nalishlaridan biri – modul va integratsiya asosida tashkil etilgan modeldir. Mazkur yo'nalish talabani o'qish jarayonida har bir modulga tarbiyaviy komponentlarni singdirish



tamoyiliga asoslanadi. Masalan, “Pedagogik psixologiya” modulida nafaqat nazariy bilimlar, balki talabada muloqot madaniyati, o‘zini anglash, jamoaviy ishlash, empatiya va mas’uliyat kabi fazilatlar ham shakllantiriladi. Har bir modul yakunida faqat bilim nazorat qilinmaydi, balki talabada shakllangan umumkasbiy kompetensiyalar ham baholanadi. Bu yo‘nalishning afzalligi shundaki, u ta‘lim va tarbiyani uzviy bog‘laydi, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiradi ^[12].

Keyingi muhim yo‘nalish – loyihaviy faoliyat modelidir. Bu model talabalarni turli ijtimoiy, madaniy, ilmiy va amaliy loyihalarga jalb etish orqali ularning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Talabalar mustaqil yoki guruh bo‘lib, turli loyihalar ishlab chiqadilar, ularni amaliyotga tatbiq etadilar, natijalarini tahlil qiladilar. Masalan, “Talabalar klubi” doirasida mahallalarda yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish bo‘yicha loyiha, maktablarda bolalarga axloqiy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan dastur yoki talabalarning ekologik ongini oshirishga qaratilgan aksiyalar o‘tkazilishi mumkin. Loyihaviy faoliyat modeli orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydilar, balki jamoada ishlash, tashabbus ko‘rsatish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish, muammoli vaziyatni hal etish ko‘nikmalarini egallaydilar ^[19].

Innovatsion modellarning yana bir yo‘nalishi – raqamli va interaktiv modeldir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarsiz ta‘lim jarayonini tasavvur etish qiyin. Shu sababli tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda ham elektron platformalar, onlayn kurslar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar, multimedia vositalaridan foydalanish zarur. Masalan, talabalar uchun maxsus “Tarbiyaviy elektron kundalik” yaratilib, unda ularning axloqiy qarashlari, ijtimoiy faoliyatlari, madaniy tadbirlardagi ishtiroklari qayd etilishi mumkin. Onlayn bahs-munozaralar, virtual treninglar, elektron refleksiya topshiriqlari orqali talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etadilar, boshqalar bilan muloqotga kirishadilar, turli ijtimoiy va madaniy masalalarda qarashlarini bildiradilar. Bu yo‘nalish nafaqat ta‘limni, balki tarbiyani ham zamonaviy shaklga olib chiqadi ^[20].

Innovatsion modellarning yana bir muhim yo‘nalishi – refleksiv va monitoring modelidir. Bu yo‘nalishda talabalar o‘z faoliyatini baholash, o‘zini tahlil qilish, xatolaridan xulosa chiqarish, o‘z ustida ishlash jarayoniga jalb qilinadi. O‘qituvchi esa faqat baholovchi emas, balki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, maslahatchi, murabbiy rolini bajaradi. Talabalar muntazam ravishda o‘z rivojlanish darajalarini baholaydilar, rejalashtiradilar, o‘z shaxsiy kamchiliklarini ko‘rib chiqadilar. Shu orqali ularda mas’uliyat, o‘zini boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Refleksiv model shaxsni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir, chunki u talabani faol subyektga aylantiradi ^[14].

Innovatsion modellarning alohida yo‘nalishi – klub va to‘garak faoliyati asosidagi modeldir. Bu yo‘nalishda talabalarning qiziqishlari, iste‘dodlari va ijtimoiy faoliyatlari asosida turli klublar, to‘garaklar, studiyalar tashkil etiladi. Masalan, teatr studiyalari, debat klublari, sport musobaqalari, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, ko‘ngillilik aksiyalari. Bunday faoliyat talabalarni nafaqat ijtimoiy faol, balki madaniyatli, ijodkor, mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi. Bu yo‘nalishning ustunligi shundaki, u talabalarni faqat auditoriya bilan cheklab qo‘ymaydi, balki ularning mustaqil ijodiy faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlaydi ^[26].

Innovatsion yo‘nalishlardan yana biri – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan modeldir. Har qanday innovatsiya milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashmasa, barqaror natija bermaydi. Shu bois tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda milliy meros, urf-odatlar, an‘analar, buyuk allomalar merosidan foydalanish, talabalarda milliy g‘urur, vatanparvarlik, xalqiga mehr, ona tiliga hurmatni shakllantirish muhimdir. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar – inson huquqlari, erkinlik, bag‘rikenglik, adolat, insonparvarlik tamoyillari ham tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi bo‘lishi lozim. Innovatsion model milliylik va umuminsoniylikni uyg‘unlashtirgan holda talabalarning axloqiy va ijtimoiy qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi ^[11].

Yana bir muhim yo‘nalish – hamkorlikka asoslangan modeldir. Bu modelda talabalarning nafaqat o‘qituvchi bilan, balki jamiyat, ota-onalar, turli tashkilotlar, mahalliy hokimiyat, nodavlat tashkilotlar, hamkor universitetlar bilan hamkorligi yo‘lga qo‘yiladi. Talabalar ijtimoiy loyihalarda, xalqaro dasturlarda, madaniy tadbirlarda faol ishtirok etadilar. Natijada ular nafaqat bilim oladilar, balki jamoatchilikda faol pozitsiyaga ega bo‘ladilar ^[16].

Shuningdek, innovatsion yo‘nalishlar orasida tadqiqot va tajriba asosidagi model ham alohida o‘rin tutadi. Talabalar pedagogik tajribalarni o‘tkazish, ilmiy izlanishlar olib borish, amaliyotda yangicha metodlarni sinovdan o‘tkazish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar. Bu yo‘nalish ularda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantiradi, ilmiy fikrlash, tahlil qilish, yangi g‘oya ilgari surish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Umuman olganda, innovatsion modellarning asosiy yo‘nalishlari pedagogik jarayonni tubdan boyituvchi va uni samarali qiluvchi yondashuvlardir. Modul va integratsiyaga asoslangan yo‘nalish, loyihaviy faoliyat modeli, raqamli va interaktiv yondashuv, refleksiv-monitoring tizimi, klub va to‘garaklar faoliyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yondashuv, hamkorlik modeli va tadqiqotga yo‘naltirilgan faoliyat talabalarda umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishiga xizmat qiladi. Har bir yo‘nalishning o‘ziga xos ustunliklari bo‘lib, ular birgalikda tarbiyaviy faoliyatni innovatsion sifat darajasiga olib chiqadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etishda innovatsion modellarning afzalliklarini chuqur o'rganish muhim ilmiy va amaliy masala hisoblanadi. Chunki har qanday yangilik yoki model nazariy jihatdan qanchalik mukammal bo'lmasin, uning real ta'siri va foydasi faqat amaliyotda namoyon bo'ladi. Shu sababli innovatsion modellarning afzalliklarini izchil tahlil qilish orqali nafaqat ularning pedagogik ahamiyatini yoritish, balki ularni amaliyotga keng joriy etishning ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va kasbiy samaralarini ham asoslab berish mumkin. Innovatsion modellarning afzalliklari deganda, avvalo, ular ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorlik, kreativlik, integrativlik va shaxsga yo'naltirilganlik jihatidan boyitib, talabalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishga qo'shgan hissasi nazarda tutiladi [26].

Birinchi navbatda, innovatsion modellarning eng muhim afzalligi ularning shaxsga yo'naltirilganligidir. An'anaviy ta'limda ko'pincha talabalar umumiy auditoriya uchun mo'ljallangan dars shaklida bilim oladilar va bunda individuallik ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Innovatsion modellarda esa, har bir talabaning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Bu esa ularning ichki salohiyatini ro'yobga chiqarishga imkon yaratadi. Masalan, modulli ta'limda talaba o'z rivojlanish trayektoriyasini mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi, loyiha asosidagi yondashuv esa talabaga o'z ijodiy qobiliyatlarini ko'rsatish va real muammolarni hal qilish orqali bilimni mustahkamlash imkonini beradi. Shu tariqa, shaxsga yo'naltirilganlik innovatsion modellarning asosiy afzalligi sifatida pedagogik jarayonni individual yondashuv asosida olib borish imkonini beradi [4].

Ikkinchi muhim afzallik – bu kompetensiyaviy yondashuvni ustuvor qilishdir. Innovatsion modellarda bilim faqat o'zi uchun emas, balki amaliy faoliyatda qo'llash, ijtimoiy hayotda foydalana olish uchun o'zlashtiriladi. Natijada talabada umumkasbiy kompetensiyalar: kommunikativlik, ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy qaror qabul qilish, madaniy qadriyatlarga hurmat, ijodkorlik, tashabbuskorlik shakllanadi. Bu esa talabani faqat nazariy bilim egasi emas, balki jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, mustaqil fikrlaydigan va mas'uliyatli mutaxassis sifatida tayyorlaydi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonini natijaga yo'naltiradi, ya'ni talabada qanday fazilat va ko'nikmalar shakllanayotgani aniq mezonlar asosida baholanadi [18].

Uchinchi afzallik – innovatsion modellarning integrativlik xususiyatidir. Bu xususiyat ta'lim va tarbiya jarayonini bir butun sifatida ko'rib chiqishga yordam beradi. An'anaviy tizimda ta'lim va tarbiya ko'pincha alohida-alohida olib boriladi: auditoriyada bilim beriladi, tarbiyaviy faoliyat esa tadbirlar shaklida tashkillashtiriladi. Innovatsion modellarda esa bu ikki jarayon uzviy bog'lanadi. Masalan, har bir fan darsida tarbiyaviy komponent bo'lishi, loyihalar va modullar tarkibida axloqiy, ijtimoiy va madaniy elementlar singdirilishi, talabalar mustaqil ishlarida tarbiyaviy vazifalar ham qo'shilishi innovatsion modellarning integrativligini namoyon etadi. Bu esa talabada bilim va tarbiya uyg'unlashgan holda shakllanishiga olib keladi [24].

To'rtinchi afzallik – ijodkorlik va kreativlikni rivojlantirishdir. Innovatsion modellarning deyarli barcha shakllari talabani yangicha fikrlash, noodatij yechim topish, ijodiy yondashuv ko'rsatishga undaydi. Masalan, loyihaviy faoliyat modeli orqali talabalar real ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun yangi g'oyalar ishlab chiqadilar, raqamli-interaktiv modellarda esa talabalar zamonaviy texnologiyalar yordamida yangi shakl va metodlarni sinab ko'radilar. Kreativlikni rivojlantirish talabalarning nafaqat kasbiy tayyorgarligini, balki shaxsiy rivojlani-shini ham ta'minlaydi. Chunki ijodiy fikrlash talabani mustaqil qaror qabul qilish, yangilik yaratish, tashabbus ko'rsatish, liderlik qobiliyatini namoyon etishga o'rgatadi [23].

Beshinchi afzallik – raqamli va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatidir. Innovation modellarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, onlayn kurslar, mobil ilovalar, elektron refleksiya platformalari orqali ta'lim jarayoni interaktiv va qiziqarli bo'ladi. Buning tarbiyaviy jihati shundaki, talabalar onlayn bahs-munozaralar, virtual ijtimoiy loyihalar, elektron kundaliklar orqali ham tarbiyaviy faoliyatga jalb qilinadilar. Natijada talabalar axborot makonida ongli ravishda harakat qilish, ijtimoiy tarmoqlarda madaniyatli muloqot olib borish, raqamli etikaga amal qilish kabi yangi kompetensiyalarni ham o'zlashtiradilar [3].

Oltinchi afzallik – refleksiya va o'zini baholashni rivojlantirishdir. Innovatsion modellarda talabalar o'z faoliyatlarini tahlil qilish, xatolaridan xulosa chiqarish, o'z ustida ishlashga o'rgatiladi. O'qituvchi esa faqat nazorat qiluvchi emas, balki maslahatchi, yo'naltiruvchi, tarbiyachi sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa talabalarda o'zini anglash, o'zini boshqarish, mas'uliyat, mustaqillik, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada ular nafaqat tashqi nazoratga tayanadilar, balki ichki intizom asosida o'z rivojlanishlarini ta'minlaydilar.



Yettinchi afzallik – milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unlashuvidir. Innovatsion modellarning yutuqlaridan biri shundaki, ular milliy madaniyat va an'analarni zamonaviy texnologiyalar va uslublar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Masalan, milliy urf-odatlariga bag'ishlangan madaniy tadbirlar zamonaviy interaktiv metodlar asosida tashkil etiladi, buyuk allomalar merosini o'rganishda elektron resurslardan foydalaniladi. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar – adolat, insonparvarlik, bag'rikenglik, erkinlik, huquqlarni hurmat qilish kabi tamoyillar ham tarbiyaviy faoliyatning ajralmas qismiga aylanadi. Bu esa talabalarning axloqiy va ijtimoiy qarashlarini kengaytiradi, ularni global dunyoda faol shaxs sifatida tayyorlaydi ^[7].

Sakkizinchi afzallik – hamkorlikni kengaytirish imkoniyatidir. Innovatsion modellarda talabalarning nafaqat o'qituvchi bilan, balki ota-onalar, jamoa, nodavlat tashkilotlar, xalqaro hamkorlar bilan hamkorligi yo'lga qo'yiladi. Talabalar turli ijtimoiy loyihalarda, xalqaro dasturlarda ishtirok etadilar, xorijiy tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlaydilar. Bu esa ularda hamkorlik madaniyatini, jamoada ishlash ko'nikmasini, turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

To'qqizinchi afzallik – talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishdir. Innovatsion modellarda talabalar faqat auditoriya bilan cheklanmay, turli jamoaviy tadbirlar, ijtimoiy aksiyalar, volontyorlik loyihalarida faol ishtirok etadilar. Bu esa ularda fuqarolik mas'uliyatini, jamiyat oldidagi burchni, ijtimoiy ongini mustahkamlaydi. Talabalar jamiyatda faol ishtirokchi sifatida shakllanadilar, o'zlarining tashabbuslari bilan ijtimoiy muammolarni hal qilishda qatnashadilar ^[5].

O'ninchi afzallik – talabalarni hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlashda amaliy natijalarning yuqoriligidir. Innovatsion modellarda talaba nafaqat bilim oladi, balki uni real hayotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, loyiha ishlari orqali talaba real ijtimoiy muammoni hal qiladi, modulli ta'limda kasbiy vaziyatlarda o'zini sinaydi, raqamli modelda esa zamonaviy texnologiyalarni amaliyotda ishlatishni o'rganadi. Bu esa talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhim poymdevor yaratadi.

Ta'lim tizimida "innovatsion model" tushunchasi so'nggi yillarda ko'plab ilmiy izlanishlar va pedagogik tadqiqotlarning markazida turibdi. Chunki globallashtirish, raqamli transformatsiya va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida an'anaviy ta'lim va tarbiya jarayonlari ko'plab jihatlari bilan zamon talablari darajasida natija bera olmay qolmoqda. Shu sababli ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, yangi shakl, metod va vositalardan foydalanish nafaqat zamonaviy ta'limning, balki tarbiyaviy faoliyatning ham strategik ehtiyoji sifatida qaralmoqda.

Innovatsion model deganda, mavjud tizimni tubdan isloh qilish emas, balki uni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadigan, ichki mazmun va tashqi shakl jihatidan samaradorlikni oshiradigan pedagogik yechimlar majmuasi tushuniladi. Bu yechimlar ko'proq integratsiya, kreativlik, shaxsga yo'naltirilganlik va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga asoslanadi ^[27].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish joizki, innovatsion modellarning afzalliklari va ularning amaliyotdagi natijalari O'zbekiston ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Kelgusida bu jarayonni yanada takomillashtirish, xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish va pedagog kadrlar malakasini oshirish orqali innovatsion modellarni yanada samarali qilish mumkin. Natijada oliy ta'lim nafaqat bilim beruvchi, balki ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq avlodni tarbiyalovchi kuchli tizimga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.
2. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarining izohli lug'ati. – T.: Fan va texnologiya, 2012.
3. Axborot asrida ta'lim-tarbiya / To'plam. Tuzuvchilar: B.X. Daniyarov, A.E. Rahimov, F.H. Jabborov. – T.: Akademnashr, 2012.
4. Azimova N.E. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi. Monografiya. – T., 2009.
5. Olimov Sh.Sh. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2015. – 228 b.
6. Pedagogik mahorat: darslik / N.M. Quchqorova, S.S. Otayeva, A.R. Amangaldiyeva, Sh.O. Yoichiyeva. – T.: Bookmany print, 2024. – 186 b.
7. Saidnazarova G.B. Tarbiya fanini o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. – Buxoro: "Buxoro Determinanti" MCHJ Kamolot nashriyoti, 2024. – 232 b.

8. Suleymanova R.D. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Guliston, 2022. – 234 b.
9. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2024/5: Leadership in Education. – Parij, 2024.
10. Xidoyatova D.A. Maktabgacha pedagogika. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: Ilm – Ziyozakat nashriyoti, 2019. – 136 b.
11. Xodjayev B., Artikova M. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi. – T., 2020.
12. Аванесян И.Д. Освоение педагогической концепции Игоря Петровича Иванова – путь к совершенствованию воспитательного процесса. СПб.: Нестор, 2002. – 80 с.
13. Алтухов И.В., Лукина Г.В. Организация воспитательной работы со студентами на энергетическом факультете. // Вестник Иркутской государственной сельскохозяйственной академии. – 2009. – №37. – С. 110–118.
14. Балашов В.В., Дмитриев Д.А., Лагунов Г.В., Лялин А.М., Румянцев В.С., Тышковский А.В. Организационные и психологические проблемы воспитательной работы в вузе. Монография. – М.: ГГУ, 2006. – 201 с.
15. Борыток Н.М. В пространстве воспитательной деятельности. Монография. / Науч. ред. Н.К. Сергеев. – Волгоград: Перемена, 2001. – 181 с.
16. Винниченко Н.Л. Модель воспитательной деятельности студентов педвуза в процессе профессионального обучения. // Вестник ТГПУ. – 2005. – Вып. 2 (46). Серия: Педагогика. – С. 21–25.
17. Винниченко Н.Л. Подготовка будущих педагогов к воспитательной деятельности в процессе профессионального обучения. Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Томск, 2005. – 18 с.
18. Гафурова Н.В., Бугаева Т.П. Воспитательный процесс в вузе как система. // Высшее образование в России. – 2009. – №6. – С. 102–106.
19. Дралюк И.А. Проектная деятельность как средство воспитания социальной активности студентов. Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Саратов, 2005. – 21 с.
20. Кадисон Ю.Б. Подготовка студентов педвуза к воспитательной деятельности в учреждениях начального профессионального образования. Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Тула, 2004. – 23 с.
21. Константинова Н.А. Об организации воспитательной работы со студентами вузов в свете Болонского процесса. // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2009. – №5. – С. 136–139.
22. Мурунов А.А. Воспитание как деятельность: опыт социально-философского анализа. – Барнаул: Изд-во АГИИК, 2003. – 160 с.
23. Пономарев А.В. Воспитательный потенциал студенческого самоуправления. // Знание. Понимание. Умение. – 2008. – №1. – С. 106–110.
24. Ройтштейн И.С. Воспитательная деятельность как фактор профессионального становления личности студентов колледжа. Дис. ... канд. пед. наук. – Магнитогорск, 1999. – 188 с.
25. Современные проблемы воспитательного процесса в вузе. Сб. докл. Первая науч.-практ. конф. (3-iyun 2010-yil). / Отв. ред. В.М. Ивойлов. – Кемерово: КемГМА, 2010. – 195 с.
26. Управление качеством воспитательной деятельности в вузе. Монография. / А.В. Пономарев, Е.В. Осипчукова, И.Ф. Кругленко. – Екатеринбург: УГТУ-УПИ, 2009. – 164 с.
27. Щуркова Н.Е. Новое воспитание. Научно-популярная литература. – М.: Педагогическое общество России, 2000. – 118 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.